

24. Sonlarni ayirish (43 – 7)

Yondosh mavzu:
O'yinlar

Xonadan o'tib ayirish.



$$\begin{aligned} \text{piggy bank} + \text{piggy bank} + \text{piggy bank} &= 30 \\ \$ + \$ + \$ &= 24 \\ \$ &= ? \quad \text{piggy bank} = ? \end{aligned}$$



1. Nigora, Said va Avaz stol o'yinini o'ynashdi. Said 25 ball, Nigora Saiddan 7 ball kam, Avaz esa Saiddan 6 ball ko'p to'pladi. Kim g'olib bo'ldi? Har bir ishtirokchi qanchadan ball to'pladi? Ular jami qancha ball to'pladilar?




2. Taqqoslang.

$$\begin{aligned} 41 - 5 &\square 25 + 10 \\ 15 + 8 &\square 32 - 10 \end{aligned}$$


$$\begin{aligned} 65 - 7 &\square 67 - 9 \\ 43 - 6 &\square 18 + 20 \end{aligned}$$



3. Do'konda 65 ta Rubik kubigi bor edi. Ertalab 3 ta, keyin kun davomida yana shuncha kubik sotildi. Do'konda qancha kubik qoldi?




4. Umid va Karim kompyuterda uch marta futbol o'ynashdi. Ushbu chizma yordamida qanday masalalar o'ylab topish mumkin?





5. Javoblarni o'sib borish tartibida qo'yib chiqing va ommabop stol o'yinining nomini toping.



6. Jadvalni to'ldiring.

Qo'shiluvchi	41	3	6		55	
Qo'shiluvchi	9		8		7	8
Yig'indi		62	25	64	32	26



7. Hisoblang.

$$45 - 9 + 4$$

$$21 - 4 + 3$$

$$56 - 8 + 2$$

$$37 - 8 + 5$$

$$72 - 6 + 4$$

$$42 - 5 + 3$$



8. Masalalar tuzing va ularni yeching.

Bor edi	Sotildi	Qoldi
12 va 18 ta o'yinchoq	15 ta o'yinchoq	?

Bor edi	Sotildi	Qoldi
55 ta o'yinchoq	4 va 5 ta o'yinchoq	?